

O'ZBEKISTON



MIGRATSIYA VAZIYATIGA OID HISOBOT 2024-YIL APREL-IYUN



Co-funded by
the European Union



Schweizerische Eidgenossenschaft
Confédération suisse
Confederazione Svizzera
Confederaziun svizra

Swiss Agency for Development
and Cooperation SDC

Migratsiya bo'yicha xalqaro tashkilot (IOM)
Global ma'lumotlar instituti (GDI)
Taubenstraße 20-22
10117 Berlin
Germaniya

IOM Toshkent
O'zbekiston, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani,
Lomonosov ko'chasi, 4-uy, 100077
Tel: +998 71 266 74 41
Email: iomtashkent@iom.int

Eslatma

Ushbu hisobot Yevropa Ittifoqi tomonidan moliyalashtirilgan "Migratsiya sohasidagi tahlil va dasturlar uchun mintaqaviy dalillar" loyihasi va Shveysariya taraqqiyot va hamkorlik agentligining (SDC) "Mehnat migratsiyasi dasturi - Markaziy Osiyo" loyihasi doirasidagi natijalarning bir qismidir. Ushbu hisobot Yevropa Ittifoqi va Shveysariya taraqqiyot va hamkorlik agentligining moliyaviy ko'magida ishlab chiqilgan. Ushbu hisobotda bildirilgan fikrlar hech qanday tarzda yuqorida qayd etilgan donor tashkilotlarning rasmiy fikrini aks ettirmaydi.

Hisobotda bildirilgan fikrlar mualliflarga tegishli bo'lib, Migratsiya bo'yicha xalqaro tashkilot (IOM) qarashlarini aks ettirmaydi. Hisobot davomida foydalanilgan belgilar va materiallar taqdimoti IOM tomonidan biron bir mamlakat, hudud, shahar yoki hududning yoki uning hokimiyat organlarining huquqiy maqomi hamda uning chegaralari yoki sarhadlari bo'yicha hech qanday rasmiy fikrini aks ettirmaydi.

IOM insonparvar va tartibli migratsiya migrantlar va jamiyatga foyda keltirishi tamoyilga sodiqdir. Hukumatlararo tashkilot sifatida IOM xalqaro hamjamiyatdagi hamkorlari bilan quyidagi maqsadlarda ishlaydi: migratsiya boshqaruvi muammolarini hal qilishda yordam berish; migratsiya masalalarini oldindan tushunish; migratsiya orqali ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishni rag'batlantirish; migrantlar insoniy qadr-qimmatini va farovonligini himoya qilish.

Ushbu hisobotda kiritilgan har qanday ma'lumotlar va axborotdan foydalanishda quyidagi iqtibos keltirilishi talab qilinadi: "Migratsiya bo'yicha xalqaro tashkilot (IOM), 2024-yil mart, MTM Migratsiya vaziyatiga oid hisobot, IOM, O'zbekiston." DTM axborot mahsulotlaridan foydalanish shartlari haqida qo'shimcha ma'lumot olish uchun quyidagi havolaga murojaat qiling: <https://dtm.iom.int/terms-and-conditions>.

© 2024 Migratsiya bo'yicha xalqaro tashkilot (IOM)

Qo'shimcha ma'lumot uchun MTM jamoasi bilan bog'laning

✉ mtmuzbekistan@iom.int

f [Facebook.com/iomuzbekistan](https://www.facebook.com/iomuzbekistan)

📷 [instagram.com/iomuzbekistan/](https://www.instagram.com/iomuzbekistan/)

🌐 dtm.iom.int/uzbekistan

MUNDARIJA

I. Mobillikni kuzatish matritsasi haqida	4
II. Kirish	4
II.I. Metodologiya	4
II.II. Hisobot qamrov darajasi	4
1. Xalqaro va ichki migrantlar ko'lamini va oqimi	5
2. O'zbekistonga doimiy yashash uchun migratsiya	6
3. O'zbekistondan chet elga doimiy yashash uchun emigratsiya	7
4. O'zbekistondan chet elga mehnat migratsiyasi	7
5. O'zbekistonlik migrantlar boruvchi asosiy davlatlar	8
6. Iqlim o'zgarishi va migratsiya	11
7. Noqonuniy migratsiya	11
8. O'zbekistonga pul o'tkazmalari	12
III. Qisqartmalar	13
IV. Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	14



I. MOBILLIKNI KUZATISH MATRITSASI HAQIDA

Mobillikni kuzatish matritsasi (Mobility Tracking Matrix- MTM) IOMning Global ko'chishni kuzatish matritsasi (Displacement Tracking Matrix- DTM)¹ asosidagi vosita bo'lib, aholi mobilligini kuzatish va tahlil qilishga qaratilgan. MTM mobil aholining harakatchanligi va zaifliklari haqidagi ma'lumotlarni to'playdi va tahlil qiladi. Ushbu vosita tizimli ravishda ushbu aholi ehtiyojlari to'g'risida yaxshiroq ma'lumotlarni asosiy qaror qabul qiluvchilarga yetkazish va tarqatish imkonini beradi.

II. KIRISH

Ushbu hisobot 2024-yilning aprel-iyun oylari uchun mavjud bo'lgan ma'lumotlarga asoslanib, O'zbekistondagi migratsiya muammolariga oid jarayonlar bo'yicha mavjud so'nggi ma'lumotlarni taqdim etadi va jamoatchilikka ochiq bo'lgan milliy va xalqaro ma'lumotlar to'plamidan olingan ma'lumotlar asosida migratsiya jarayonlariga qaratilgan qiyosiy tahlillarni taqdim etadi. Hisobot mamlakatdagi migratsiya vaziyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatayotgan so'nggi yirik global va mintaqaviy voqealarni o'z ichiga oladi. Hisobotda Rossiyaning Ukrainaga bostirib kirishi 2022-yildan buyon mintaqadagi an'anaviy migratsiya yo'laklarini o'zgartirishi hamda Crocuss City Hall voqeasining migrantlar hayotiga ta'siri aks etadi. Shuningdek, mehnat migratsiyasi oqimining o'zgarishi, iqlim o'zgarishi bilan bog'liq migratsiyaning kuchayishi, o'sib borayotgan urbanizatsiya jarayoni, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar, noqonuniy migratsiyaning kuchayishi va boshqa muhim voqealar insonlar mobilligi va migratsiya harakatining asosiy omili sifatida tavsiflanadi.

II.I METODOLOGIYA

Migratsiya bo'yicha xalqaro tashkilot (IOM) statistik ma'lumotlarni to'pladi va qayta ishladi hamda O'zbekistondagi mavjud ma'lumotlar asosida qiyosiy tahlillarni ishlab chiqdi. Tadqiqot va tahlil uchun manba sifatida adabiyotlar sharhlari, milliy va xalqaro tashkilotlar, milliy tadqiqot markazlari va Markaziy Osiyo mintaqasi uchun dolzarb bo'lgan mualliflarning nashrlari tanlab olindi.

Hisobotda asosiy ma'lumotlar manbalari quyidagi tashkilotlar tomonidan taqdim etilgan:

- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi (O'zStat);
- O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki (MB);
- Tegishli davlat organlarining, shuningdek migrantlar boruvchi davlatlar tashkilotlari hisobotlari;
- Tegishli xalqaro tashkilotlarning hisobotlari;

II.II HISOBOT QAMROV DARAJASI

Hisobotda O'zbekistondagi migratsiya jarayonlari bilan bog'liq oldingi hisobotlarda yoritilgan eng dolzarb mavzularga e'tibor qaratishda davom etiladi. Hisobotda mavjud ikkilamchi manbalardan foydalangan holda xalqaro va ichki migratsiya ko'lami, doimiy yashash maqsadidagi migratsiya va emigratsiya oqimlari, O'zbekistondan chetga mehnat migratsiyasi, o'zbekistonlik migrantlar boruvchi asosiy mamlakatlar, iqlim o'zgarishi va migratsiya muammolari, noqonuniy migratsiya, chet eldan pul o'tkazmalari va boshqa mavzular yoritiladi. Ma'lumotlarning cheklanganligi (1) ko'rsatilgan davr uchun ba'zi ma'lumotlarning mavjud emasligi, (2) boshqa ma'lumotlar bilan mos kelmasligi va nomutanosib guruhlariga ajratilishi yoki (3) jamoatchilikka ma'lum bo'lmagan metodologiyalar tufayli kelib chiqqan bo'lishi mumkin. Qo'shimcha ma'lumot olish uchun adabiyotlar ro'yxatida keltirilgan manbalarga murojaat qiling.

¹ [Displacement Tracking Matrix website, 2023](#)




1. XALQARO VA ICHKI MIGRANTLAR KO'LAMI VA OQIMI

2024-yilning ikkinchi choragida xalqaro va ichki migrantlar soni va oqimi bo'yicha jarayonlar turli ikkilamchi manbalar orqali, ayniqsa O'zStatning ushbu mavzular bo'yicha so'nggi raqamlari va boshqa tegishli manbalarga asoslanib kuzatildi. Ushbu hisobotda keltirilgan turli manba ma'lumotlari yig'ish davri va atamalar ta'rifidagi tafovutlar tufayli o'zaro farq qilishi mumkin.

Ko'chib kelish migratsiyasi bir hududga chet eldan va O'zbekistonning boshqa viloyatlaridan ko'chib kelganlar sonidan iboratdir. 2024-yilning 2-choragida ro'yxatga olingan ko'chib kelish migratsiyasi soni 60,400 kishiga teng bo'lib, ularning 34,300 nafari ayollar (58%) va 26,100 nafari erkaklar (42%) bo'lgan. Bu 2024-yilning 1-choragida ro'yxatga olingan ko'chib kelish migratsiya oqimiga (52,200 kishi – shulardan 31,600 nafari ayollar (56%) va 24,600 nafari erkaklar (44%)) to'qqiz foizlik o'sishni qayd etdi. 2024-yilning 2-choragida ro'yxatga olingan ko'chib kelish migratsiyasining asosiy qismini qishloqdan shaharga ko'chish tashkil etib, 44,900 kishini (74%) qayd etgan, shahardan qishloq joylariga esa atigi 15,500 kishi (26%) ko'chib o'tgan (O'zStat, 2024-yil).


1-rasm. 2024-yil 1-choragi va 2-choragidagi ko'chib kelish migratsiyasi (mutlaq raqamlar va foiz)



Manba: O'zStat, 2024-yil

Ko'chib ketish migratsiya oqimi mamlakat ichida va mamlakatdan tashqariga ko'chib ketuvchilar sonini nazarda tutadi. 2024-yilning 2-choragida ro'yxatga olingan ko'chib ketish migratsiyasi 62,400 kishiga teng bo'lgan – shulardan 35,300 nafari ayollar (57%) va 27,100 nafari erkaklar (43%). Bu 2024-yilning 1-choragidagi ko'chib ketish migratsiya oqimiga (58,200 kishi – shulardan 32,500 nafari ayollar (56%) va 25,700 nafari erkaklar (44%)) nisbatan yetti foizga o'sishni ko'rsatdi. 2024-yilning 2-choragida qayd etilgan ko'chib ketish migratsiyasida shaharlardan 51,400 kishi (82%), qishloq joylaridan esa 11,000 kishi (18%) ko'chib ketgan (O'zStat, 2024-yil).

2-rasm. 2024-yil 1-choragi va 2-choragidagi ko'chib ketish migratsiyasi (mutlaq raqamlar va foizlar)




Manba: O'zStat, 2024-yil

Oldingi [hisobotlarda](#) qayd etilganidek, ichki migratsiya jarayonini kuzatish tizimlari, birinchi navbatda, mamlakat ichidagi doimiy yashash joylaridagi o'zgarishlar to'g'risidagi ma'lumotlarga tayanadi va bu esa ichki migratsiya bo'yicha asl vaziyatni aks ettirmasligi mumkin. O'zStat ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yil 2-choragida mamlakat ichida bir hududdan ikkinchi hududga 59,920 kishi ichki migratsiyani amalga oshirgan. Bu 2024-yil 1-choragida qayd etilgan ichki migratsiyaga (55,614 kishi) nisbatan qariyb yetti foizga ko'pdir (O'zStat, 2024-yil).



3-rasm. 2024-yil 1-choragi va 2-choragidagi ichki migratsiya (mutlaq raqamlar)




Manba: O'zStat, 2024-yil

2. O'ZBEKISTONGA DOIMY YASHASH UCHUN MIGRATSIYA

2024-yilning 2-choragida O'zbekistonga doimiy yashash maqsadida faqatgina 519 nafar xalqaro migrant ko'chib kelgan. Bu 2024-yilning 1-choragida doimiy yashash uchun kelgan migrantlar soniga nisbatan (561 kishi) deyarli yetti foizga kamdir. 2024-yilning 2-choragida doimiy yashash maqsadida mamlakatga kelgan migrantlarning asosiy qismini Rossiya Federatsiyasi fuqarolari (180 kishi yoki 35%), undan keyingi o'rinlarda Qozog'iston (137 kishi yoki 26%), Tojikiston (53 kishi yoki 10%), Qirg'iziston (33 kishi yoki 6%), Turkmaniston (14 kishi yoki 3%) va boshqa mamlakatlar (102 kishi yoki 20%) fuqarolari qayd etilgan. 2024-yil 2-choragida O'zbekistonga doimiy yashash maqsadida ko'chib kelgan xalqaro migrantlarning jinsiy tarkibi bo'yicha ma'lumot berilmagan (O'zStat, 2024-yil).

4-rasm. O'zbekistonga mamlakatlar bo'yicha doimiy yashash uchun kelgan migrantlar soni, 2024-yil 1-choragi va 2-choragi (mutlaq raqamlar)




Manba: O'zStat, 2024-yil



3. O'ZBEKISTONDAN CHET ELGA DOIMIY YASHASH UCHUN EMIGRATSIYA

2024-yilning 2-choragida O'zbekistondan chet elga doimiy yashash uchun ko'chib ketgan shaxslar soni 2,480 nafarni tashkil etdi. Bu 2024-yilning 1-choragidagi qayd etilgan emigrantlar soniga nisbatan (2,586 kishi) deyarli to'rt foizga kam ko'rsatgichdir. Avvalgi chorakda qayd etilgan lфиш 2024-yilning 2-choragida ham ro'yxatga olingan O'zbekistondan eng yuqori emigratsiya Qozog'istonga amalga oshirilgan bo'lib (2,003 kishi yoki 81%), undan keyingi o'rinlarda Rossiya Federatsiyasi (403 kishi yoki 16%), Koreya Respublikasi (17 kishi yoki 0.7%), Qirg'iziston (12 kishi yoki 0.5%), Turkmaniston (6 kishi yoki 0.3%) va boshqa mamlakatlar (54 kishi yoki 2%) qayd etilgan. Jinsiy tarkib nuqtai nazaridan, 2024-yil 2-choragidagi erkak va ayol emigrantlar soni bo'yicha ma'lumot berilmagan (O'zStat, 2024-yil).

5-rasm. O'zbekistondan chet elga doimiy yashash uchun borish mamlakatlari bo'yicha emigratsiya ko'lami, 2024-yil 1-choragi va 2-choragi (mutlaq raqamlar)



Manba: O'zStat, 2024-yil

4. O'ZBEKISTONDAN CHET ELGA MEHNAT MIGRATSIYASI

O'zbekiston hukumati xorijda ishlashni xohlovchi O'zbekiston fuqarolarining xavfsiz, muntazam va tartibli mehnat migratsiyasini ta'minlash borasidagi sa'y-harakatlarini davom ettirishi fonida mehnat migratsiyasi mamlakatdagi migratsiyaning asosiy omili bo'lib qolmoqda. 2024-yil aprel oyida "Mehnat migratsiyasi jarayonlarini takomillashtirish hamda xorijda vaqtincha mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan shaxslarni qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi yangi Prezident qarori e'lon qilindi. Qarorda mehnat migratsiyasi tizimini yaxshilashga qaratilgan ba'zi asosiy o'zgarishlar, jumladan, chet elda qiyinchiliklarga duch kelgan fuqarolarga huquqiy yordam ko'rsatish, vatanga qaytgan migrantlarni ishga yollagan ish beruvchilarga subsidiya ajratish, chet elga ketayotgan migrantlar uchun 24/7 qo'ng'iroq markazini tashkil etish, xorijda ishlayotgan ota-onalarning farzandlariga ijtimoiy yordam ko'rsatish va boshqa chora-tadbirlar ko'zda tutilgan (Lex, 2024).

Biroq mazkur davrda chet elga ketgan mehnat migrantlari soni bo'yicha ma'lumot mavjud emas. Ushbu ma'lumot odatda Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi (TTMA) tomonidan e'lon qilinadi.



5. O‘ZBEKISTONLIK MIGRANTLAR BORUVCHI ASOSIY DAVLATLAR

ROSSIYA FEDERATSIYASI

Rossiya Federatsiyasi 2022-yil fevralidan buyon Ukrainadagi harbiy harakatlari tufayli unga nisbatan joriy etilgan iqtisodiy sanksiyalarga qaramay, o‘zbekistonlik mehnat migrantlari uchun asosiy boriluvchi davlat bo‘lib qolmoqda. Rossiya Federatsiyasining Federal davlat statistika xizmati (Rosstat) yaqinda e‘lon qilgan 2023-yil uchun rasmiy migratsiya statistikasi hisobotiga ko‘ra 2023-yilda O‘zbekistondan turli maqsadlarda Rossiya Federatsiyasiga 44,536 kishi kelgan (Rosstat, 2024-yil)

Ba‘zi mavjud ma‘lumotlarga ko‘ra, so‘nggi vaqtlarda Rossiya Federatsiyasidagi o‘zbekistonlik migrantlarining soni kamayib bormoqda. O‘zbekiston Prezidenti matbuot kotibi Sherzod Asadovning mahalliy ommaviy axborot vositalariga bergan bayonotiga ko‘ra, 2016-yilda Rossiya Federatsiyasida O‘zbekistondan kelgan mehnat migrantlari umumiy soni 4-6 million kishi bo‘lgan bo‘lsa, hozirgi paytda bu raqam 1 million kishigacha kamaygan (Yangi Zamon, 2024-yil).


2024-yil mart oyi oxirida Moskva viloyatidagi Crocus City savdo majmuasida sodir bo‘lgan fojiali voqeadan so‘ng, asosan Markaziy Osiyo davlatlaridan kelgan migrantlarga qarshi qaratilgan politsiya reydlari kuchaydi. Rossiya Ichki ishlar vazirligi vakili Irina Volkning so‘zlariga ko‘ra, 2024-yilning birinchi yarmida "Nelegal-2024" politsiya operatsiyasi doirasida Rossiya Federatsiyasidan 30 mingdan ortiq chet el fuqarolari chiqarib yuborilgan (Volk, 2024-yil). Mamlakatlar bo‘yicha raqamlar oshkor qilinmagan bo‘lsa-da, ko‘pchilik migrantlar Markaziy Osiyo davlatlaridan bo‘lgan bo‘lishi mumkin.

2024-yil iyun oyida Rossiya Federatsiyasi Parlamenti (Duma) migratsiya sohasidagi nazoratni kuchaytirishga qaratilgan qonun loyihalari paketini qabul qildi. Ushbu qonun loyihalari migrantlarni deportatsiya qilishning yangi huquqiy asoslarini joriy etadi va migrantlar majburiyatlarini, jumladan, atrof-muhitni asrash, Rossiya Federatsiyasidagi turmush tarzining xilma-xilligini hurmat qilish va an‘anaviy ma‘naviy va axloqiy qadriyatlarini qo‘llab-quvvatlash majburiyatlarini belgilaydi, shuningdek, Rossiya Federatsiyasi Ichki ishlar vazirligining migratsiya sohasidagi vakolatlarini kengaytiradi (Duma, 2024-yil).

QOZOG‘ISTON

2024-yilning 2-choragida O‘zbekistondan Qozog‘istonga doimiy yashash maqsadida 2,701 kishi kelgan, bu 2024-yilning birinchi choragida shu maqsadda Qozog‘istonga kelgan shaxslar soniga (2,137 kishi) nisbatan qariyb 20 foiz ko‘proqdir. 2024-yilning 2-choragida O‘zbekistondan kelgan migrantlar Qozog‘istonga doimiy yashash uchun kelgan barcha xorijiy fuqarolarning (6,785 kishi) 40 foizini tashkil etgan (QozStat, 2024-yil).

Figure 6. Qozog‘istonda doimiy yashash ruxsatnomasiga ega bo‘lgan o‘zbekistonlik migrantlar soni, 2024-yil 1-choragi va 2-choragi (mutlaq raqamlar va foiz)



Manba: QozStat, 2024-yil




Avvalroq Migratsiya bo'yicha xalqaro tashkilot (IOM) Qozog'istonning 10 ta mintaqasida Mobillikni kuzatish matritsasi (MTM) vositalaridan foydalanib, asosiy mobillik kuzatuv so'rovnomalarini o'tkazgan edi. 2024-yil yanvar holatiga ko'ra, ushbu mintaqalardagi 639,799 xalqaro mehnat migrantlarining 491,284 nafari o'zbekistonlik ekanligi aniqlangan (IOM, 2024-yil).

TURKIYA RESPUBLIKASI

2024-yil iyun holatiga ko'ra Turkiya Respublikasi Migratsiya boshqaruvi raisligi (MBR) raisligi bergan ma'lumotlariga asoslanilsa, Turkiya Respublikasida yashash uchun ruxsatnoma olgan o'zbekistonlik migrantlar soni 55,869 kishiga yetgan. Bu ko'rsatkich 2023-yil mart oyidagi yashash ruxsatnomasiga ega bo'lgan o'zbekistonlik migrantlar soniga (55,303 kishi) nisbatan faqatgina bir foizga oshgan. Yashash uchun ruxsatnomalar qisqa muddatli yashash uchun ruxsatnoma, oilaviy yashash uchun ruxsatnoma, talaba ruxsatnomasi, uzoq muddatli yashash uchun ruxsatnoma, gumanitar ruxsatnoma va odam savdosi qurbonlari uchun yashash ruxsatnomasi kabilarni o'z ichiga oladi (MBR, 2024-yil(a)).

7-rasm. Turkiya Respublikasida yashash uchun ruxsatnomaga ega bo'lgan o'zbekistonlik xalqaro migrantlar soni, 2024-yil 1-choragi va 2-choragi (mutlaq raqamlar)




Manba: MBR, 2024-yil

KOREYA RESPUBLIKASI

2024-yil iyun holatiga ko'ra, Koreya Respublikasida yashayotgan o'zbekistonlik migrantlar soni 90,800 kishini tashkil etib, mamlakatdagi barcha xorijiy fuqarolarning (2,612,328 kishi) 3.5 foizini tashkil qilgan. Bu 2024-yil mart oyidagi o'zbekistonlik migrantlar soniga (89,902 kishi) nisbatan deyarli bir foizga ko'pdir (KIX, 2024-yil).

8-rasm. Koreya Respublikasida istiqomat qiluvchi o'zbekistonlik migrantlar soni, 2023-yil mart va 2024-yil mart (mutlaq raqamlar)




Manba: KIX, 2024-yil



2024-yil iyun holatiga ko'ra, 57,651 nafar o'zbekistonlik migrant yashash ruxsatnomasiga ega bo'lib, Koreya Respublikasidagi barcha o'zbekistonlik migrantlarning 63,5 foizini tashkil etgan. Bu 2024-yil mart oyidagi yashash ruxsatnomasiga ega bo'lgan migrantlar soniga (56,408 kishi) nisbatan qariyb ikki foizga ortiq ko'rsatgichdir. Qisqa muddatli ruxsatnomalarga ega bo'lgan o'zbekistonlik migrantlari soni esa 2024-yil iyun holatiga ko'ra 4,975 kishini tashkil etib, bu mart oyidagi 5,716 kishiga nisbatan 13 foizga kamdir. Shuningdek, 2024-yil iyun holatiga ko'ra, yashash ruxsatnomasiga ega bo'lgan migrantlarning 25,121 nafari mamlakatda ishlash uchun rasmiy ruxsatnomaga ega bo'lgan (KIX, 2024-yil).

2024-yil iyun holatiga ko'ra, Koreya Respublikasida O'zbekiston fuqarosi hisoblangan etnik koreyslar soni 43,448 kishini tashkil etib, bu mamlakatdagi barcha o'zbekistonlik migrantlarining deyarli 48 foizini tashkil etgan. Bu raqam 2024-yil mart oyidagi o'zbekistonlik etnik koreys migrantlar soniga deyarli tengdir (43,335 kishi) (KIX, 2024-yil).

9-rasm. Koreya Respublikasida istiqomat qiluvchi o'zbekistonlik etnik koreyslar va doimiy yashash ruxsatnomalari egalari, 2023-yil mart (foiz)



Manba: KIX, 2024-yil

2024-yil iyun oxiriga kelib, Koreya Respublikasidagi o'zbekistonlik talabalar soni 13,281 kishini tashkil etib, bu 2024-yil mart oyidagi talabalar soniga nisbatan biroz kamaygan (13,442 kishi). O'zbekistonlik talabalar mamlakatdagi jami xalqaro talabalar (236,038 talaba) sonining 5,6 foizini tashkil etgan (KIX, 2024-yil).

YEVROPA ITTIFOQI DAVLATLARI

Ommaviy axborot vositalari manbalarida qayd qilinishicha, ko'pchilik o'zbekistonlik migrantlar Yevropa Ittifoqi (Yel) mamlakatlari orasida Polshani o'zlari uchun afzal yo'nalish sifatida tanlamogda. Polshadagi o'zbekistonlik migrantlar soni aniq bo'lmasa-da, Polshadagi O'zbekiston elchixonasi ma'lumotiga asoslanib xabar qilinishicha, Polshada taxminan 20,000 nafar o'zbekistonlik bor hamda ularning asosiy qismini talabalar va mehnat migrantlari tashkil etadi (The Beet, 2024). Polsha Raqamlashtirish vazirligi xabariga ko'ra, 2014-yildan boshlab 21,000 nafardan ortiq o'zbekistonlikga Polsha milliy identifikatsiya raqamlari (PESEL) berilgan hamda bu raqam 2023-yilda 6,440 tani tashkil etgan (The Beet, 2024). Shu bilan birga, Polsha 2023-yilda 9,534 nafar o'zbekistonlik migrantlarga ishlash ruxsatnomasini bergan bo'lib, bu raqam boshqa Yel mamlakatlariga nisbatan ancha ko'pdir (Yevrostat, 2023-yil (a)).

2024-yilning 2-choragida Yel davlatlaridagi 480 nafar o'zbekistonlik migrantga Yel hududini tark etish buyrug'i kelib tushgan. Ularning aksariyati shu davrda Shvetsiyada (240 kishi) va Latviyada (155 kishi) yashayotgan edi. Bu raqam 2024-yilning 1-choragiga nisbatan deyarli ikki baravar kamaygan (835 kishi) (Yevrostat, 2024-yil(a)).

2024-yilning 2-choragida o'zbekistonlik migrantlar tomonidan Yel mamlakatlarida taxminan 195 ta boshpana so'rab ariza berilgan, ularning aksariyati (90 ta ariza yoki 46%) Shvetsiyada taqdim etilgan. Bu ko'rsatgich 2024-yilning 1-choragiga nisbatan 37 foizga kamdir (310 ta ariza) (Yevrostat, 2024-yil (b)).



6. IQLIM O'ZGARISHI VA MIGRATSIYA

Iqlim o'zgarishi Markaziy Osiyoda, jumladan O'zbekistonda ham dolzarb muammo bo'lib qolmoqda. Hozirgi kunda iqlim o'zgarishining migratsiyaga ta'sirini baholash bo'yicha to'liq tadqiqotlar o'tkazilmagan bo'lsa-da, iqlim o'zgarishiga moslashish mavzusidagi muhokamalar har yili asta-sekin kengayib bormoqda. 2023-yilda O'zbekistonda Orol dengizi masalasi va iqlim migratsiyasi kabi mavzularni muhokama qilgan 20 ta turli darajadagi tadbirlar o'tkazilgan (IISD, 2024-yil).

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot Dasturi (UNDP) tomonidan 2024-yil may oyida Toshkentda o'tkazilgan Iqlim o'zgarishiga moslashuv bo'yicha konferensiyada ta'kidlanganidek, Markaziy Osiyo mamlakatlari iqlim o'zgarishiga ayniqsa ta'sirchan bo'lib, bu yerda harorat global o'rtacha ko'rsatkichdan 1,7 baravar tez oshmoqda. Ushbu tez isish natijasida muzliklar maydoni sezilarli darajada kamayib, oxirgi 50 yil ichida ularning hajmi deyarli 32 foizga qisqargan (UNDP, 2024-yil). Natijada, daryo oqimlari kamayib bormoqda, bu esa mintaqaning oziq-ovqat va energiya xavfsizligiga jiddiy tahdid solmoqda. Ushbu o'zgarishlar ehtimol yaqin kelajakda mintaqada yashovchi odamlarning migratsiyasiga olib kelishi mumkin.

7. NOQONUNIY MIGRATSIYA

Oldingi [hisobotlarda](#) ta'kidlanganidek, O'zbekistondagi xalqaro noqonuniy migrantlar soni haqidagi ma'lumotlar rasmiy manbaalar mavjud emas. Biroq 2024-yilning 2-choragida o'zbekistonlik noqonuniy migrantlar holatlari migrantlar boruvchi asosiy mamlakatlarda qayd etilgan.

Turkiya Respublikasida 2024-yil 4-apreldan 27-iyungacha politsiya tomonidan qo'lga olingan o'zbekistonlik noqonuniy migrantlar soni 2,282 kishini tashkil etdi. Bu 2024-yil boshidan aprel oyining boshigacha qayd etilgan o'zbekistonlik noqonuniy migrantlar soniga nisbatan deyarli to'qqiz foizga kam (2,503 kishi)(MBR, 2024-yil (b)).

Yel mamlakatlarida noqonuniy tarzda istiqomat qilayotgani aniqlangan O'zbekiston fuqarolari soni 2023-yil oxiriga kelib 3,425 nafarga yetgan edi (Yevrostat, 2023-yil (b)). Biroq 2024-yilning birinchi va ikkinchi choraklari uchun ma'lumotlar hali mavjud emas.

Koreya Respublikasida noqonuniy holatda bo'lgan migrantlar soni odatda yillik asosda e'lon qilinadi, shu sababli 2024-yil uchun ma'lumotlar hozircha mavjud emas. Oldingi hisobotda qayd etilganidek, 2023-yil oxiriga borib noqonuniy holatda bo'lgan o'zbekistonlik migrantlar soni 8,812 kishini tashkil etgan (KIX, 2023-yil).

2024-yil iyun oyida Amerika Qo'shma Shtatlari (AQSh) Chegara nazorati vakillari Kaliforniyada noqonuniy migratsiya orqali chegarani kesib o'tgan migrantlar bo'lajak sud sanasi bilan ozod etilishini, ammo ular boshpana so'rash huquqiga ega bo'lmasligini xabar qildi. Biroq bir nechta mamlakatlardan, jumladan, O'zbekistondan kelgan katta yoshdagi noqonuniy migrantlar darhol AQSh hududidan deportatsiya qilinish ma'lum qilindi (New York Post, 2024-yil). 2023-yil oktyabridan 2024-yil mayigacha AQShning janubiy chegarasini kesib o'tishga uringan 57,200 nafar noqonuniy migrantdan taxminan 2,900 nafari o'zbekistonlik edi (Foxnews, 2024-yil).

Shu bilan birga bu davrda Lotin Amerikasidagi ba'zi davlatlarda noqonuniy holatda bo'lgan o'zbekistonlik migrantlar haqida ma'lumotlar e'lon qilindi. Gonduras Milliy migratsiya instituti (GMMI) ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilning 2-choragida Gondurasda politsiya tomonidan 164 nafar o'zbekistonlik noqonuniy migrant (126 erkak va 48 ayol) ushlangan, bu raqam 2024-yilning 1-choragida aniqlangan 256 nafar noqonuniy migrantga nisbatan 64 foizga kam (GMMI, 2024-yil). Shuningdek, Meksika Statistika boshqarmasi (MSB) Meksika hududida 2024-yilning 2-choragida 708 nafar o'zbekistonlik noqonuniy migrant qo'lga olinganini ma'lum qildi. Bu 2024-yilning 1-choragida Meksika politsiyasi tomonidan ushlangan 1,054 nafar o'zbekistonlik noqonuniy migrantlar soniga nisbatan 33 foizga kamdir (MSB, 2024-yil).




8. O‘ZBEKISTONGA PUL O‘TKAZMALARI

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki (MB) ma‘lumotlariga ko‘ra, 2024-yilning birinchi yarim yilligida O‘zbekistonga yuborilgan pul o‘tkazmalari 6,5 milliard AQSh dollariga teng bo‘lgan, shu jumladan, joriy yilning 2-choragida O‘zbekistonga 4 milliard AQSh dollari yuborilgan. MB xabariga ko‘ra, bu miqdor o‘tgan yilning shu davriga nisbatan deyarli 25 foizga ko‘p (MB, 2024-yil).

MB tomonidan mehnat migratsiyasi yo‘nalishlarining o‘zgarishi va chet elga ketayotgan migrantlar sonining turli mamlakatlarga diversifikatsiyasi natijasida AQSh (+43%), Germaniya (+64%), Polsha (+93%) va Koreya Respublikasi (+90%) kabi davlatlardan kelayotgan pul o‘tkazmalari sezilarli darajada oshgani ta‘kidlangan.

10-rasm. O‘zbekistonga pul o‘tkazmalari oqimi, 2024-yilning 1-choragi va 2-choragi (AQSh milliard dollari)



Manba: MB, 2024-yil



III. QISQARTMALAR

IOM	Migratsiya bo'yicha xalqaro tashkilot
AQSh	Amerika Qo'shma Shtatlari
BMT	Birlashgan Millatlar Tashkiloti
BKQV	O'zbekiston Respublikasi Bandlik va kambag'allikni qisqartirish vazirligi
GMMI	Gonduras Milliy migratsiya instituti
IISD	Barqaror rivojlanish xalqaro instituti
KIX	Koreya Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Koreya immigratsiya xizmati
LEX	O'zbekiston Respublikasi milliy qonunchilik bazasi
MB	O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki
MBR	Turkiya Respublikasi Ichki ishlar vazirligi huzuridagi Migratsiya boshqarmasi raisligi
MTM	Mobillikni kuzatish matritsasi
MSB	Meksika Statistika boshqarmasi
QozStat	Qozog'iston Strategik rejalashtirish va islohotlar agentligi qoshidagi Milliy statistika byurosi
TMMA	O'zbekiston Respublikasi Tashqi mehnat migratsiya agentligi
RosStat	Rossiya Federatsiyasining Federal davlat statistika xizmati
UNDP	Birlashgan Millatlar Tashkiloti Taraqqiyot Dasturi
YaIM	Yalpi ichki mahsulot
Yel	Yevropa Ittifoqi
Yevrostat	Yevropa Ittifoqi statistika platformasi
O'zStat	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi



IV. FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Barqaror rivojlanish xalqaro instituti (IISD)

2024 [Atrof-muhit bo'yicha milliy hisobot: O'zbekiston](#), IISD sayti

Beet axborot agentligi

2024 [Nega o'sib borayotgan sondagi o'zbekistonlik migrantlar Polshani Rossiyadan afzal ko'rmoqda?](#), Beet sayti

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Taraqqiyot Dasturi (UNDP)

2024 [Iqlim o'zgarishi va moslashuv masalalariga bag'ishlangan Toshkent konferensiyasi](#), UNDP rasmiy sayti

Fox axborot agentligi

2024 [Bojxona va chegara politsiyasi Kaliforniya chegarasida ko'plab noqonuniy migrantlarni ushladi](#), Fox sayti

Gonduras Milliy migratsiya instituti (GMMI)

2024 [Muntazam migrantlar oqimi](#), GMMI rasmiy sayti

Koreya Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Koreya immigratsiya xizmati (KIX)

2023 [Migratsiya bo'yicha yillik hisobot](#), KIX rasmiy sayti

2024 [Immigrantlar va chet ellik migrantlar statistikasi](#), KIX rasmiy sayti.

Meksika Statistika idorasining Migratsiya siyosati boshqarmasi (MSB)

2024 [Meksikadagi noqonuniy migratsiya holati](#), MSB veb-sayti

Migratsiya bo'yicha xalqaro tashkilot (IOM)

2024 [Qozog'istondagi boshlang'ich mobillikni baholash MTM hisoboti](#), IOM DTM sayti

New York Post axborot agentligi

2024 [Chegara politsiyasi yo'riqnomasi asosida 100 dan ortiq mamlakatdan kelgan migrantlar AQShga o'tdi](#), New York Post sayti

Turkiya Respublikasi Migratsiya boshqarmasi raisligi (MBR)

2024 (a) [Yashash uchun ruxsatnomalar](#), MBR rasmiy sayti

2024 (b) [Noqonuniy migratsiya](#), MBR rasmiy sayti.

Qozog'iston Strategik rejalashtirish va islohotlar agentligi huzuridagi Milliy statistika byurosi (QozStat)

2024 [Qozog'iston Respublikasi aholisi migratsiyasi](#), QozStat sayti.

Rossiya Federatsiyasi Davlat Dumasi (Parlament)

2024 [Migratsiya sohasi nazoratini kuchaytiruvchi yangi qonun hujjatlari to'plami](#), Duma rasmiy sayti

Rossiya Federatsiyasi Federal davlat statistika xizmati (Rosstat)

2024 [Rossiyada aholi va migratsiya soni](#), Rossta rasmiy sayti

Volk

2024 [Rossiya Federatsiyasi Ichki ishlar vazirligi vakili Irina Volk bayonoti](#), Irina Volkning telegram kanali



Yangi Zamon axborot agentligi

2024 [O'zbekiston Respublikasi Prezidenti matbuot kotibi Sherzod Asadov bilan suhbat](#), Yangi Zamon Telegram kanali

Yevropa Ittifoqining Statistika boshqarmasi (Yevrostat)

2023 (a) [Fuqarolik bo'yicha yashash ruxsatiga ega bo'lgan barcha chet elliklar](#), Yevrostat sayti.

2023 (b) [Yel hududida noqonuniy istiqomat uchinchi davlat fuqarolari](#), Yevrostat sayti.

2024 (a) [Yel hududini takr etish buyurilgan uchinchi davlat fuqarolari](#), Yevrostat sayti.

2024 (b) [Boshpana so'rab murojaat qilgan migrantlar](#), Yevrostat sayti.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki (MB)

2024 [2024-yil birinchi yarim yilligi uchun pul-kredit tahlili](#), MB rasmiy sayti.

O'zbekiston Respublikasi milliy qonunchilik bazasi

2024 ["Mehnat migratsiyasi jarayonlarini takomillashtirish hamda xorijda vaqtincha mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan shaxslarni qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" Prezident farmoni](#), Lex sayti.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi (O'zStat)

2024 [O'zbekistondagi demografik holat – 2024-yil aprel-iyun \(Dastlabki ma'lumotlar\)](#), O'zStat rasmiy sayti.



Co-funded by
the European Union



Schweizerische Eidgenossenschaft
Confédération suisse
Confederazione Svizzera
Confederaziun svizra

Swiss Agency for Development
and Cooperation SDC